# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

( 2021- yil yanvar-fevral oylarida )

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 831,1 mlrd. sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 102,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (89,5 %)ni tashkil etdi.




***B***–*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,5 % ga pasayishi kuzatildi.Shuningdek,elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 30,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 44,2 % ga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 116,1 % ga oshganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi*** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da







### Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,

mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 1736,7 | 3734,9 | 157,3 |
| Forish tumani | 2176,8 | 8814,1 | 392,0 |
| Sharof Rashidov tumani | 2704,0 | 325,3 | 8,8 |
| Zomin tumani | 5100,3 | 1514,0 | 21,7 |
| Jizzax shahri | 1183,0 | 939,1 | 57,9 |
| Zafarobod tumani | 1174,3 | 1652,3 | 102,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

| mlrd. so‘m | FHI, % da |
| --- | --- |







2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 744,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,5 % ini tashkil etdi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2020- yilning yanvar-fevral oylarida – 3,0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 4,3 % (4,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 14,9 % (16,8 %) va quyi texnologiyalisi – 69,1 % (66,9 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 6,1 % ( 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,5 % ( 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 51,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 46,1 % ( 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,2 % ( 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 123,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,1 %( 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 14,8 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Paxta tolasi**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta linti**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 9 189,0 | 10 548,2 | 1359,2 |
| Paxta tolasi, t. | 8 099,0 | 2 498,0 | - 5 601,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 585,0 | 740,3 | 155,3 |
| Paxta linti, t. | 758,0 | 246,0 | - 512 |
| Trikotaj polotnolar, t. | 356,0 | 588,0 | 232 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-fevral oylarida







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 30,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 54 103,4 | 54 989,7 | 886,3 |
| Boshqa bug‘ va issiq | 4,8 | 6,6 | 1,8 |

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| suv (issiqlik energiyasi), ming gkal | | | |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 15 660,6 | 18 353,8 | 2 693,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,7 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m, | 3 379,3 | 10 970,5 | 7 591,2 |
| Kanalizatsiya tizimi bo‘yicha | 8,8 | 4,6 | - 4,2 |

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **xizmatlar, mln. so‘m** | | | |
| **Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 2 605,8 | 3 713,7 | 1 107,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 73,5 % ga oshganlik kuzatildi, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 6,2 % ga, hamda kanalizatsiya tizimi bo‘yicha xizmatlar 74,5 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 336,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga mos davriga nisbatan 2,0 % ga pasaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 35,0 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 6,7 % ni, Zafarobod tumani 10,5 % ni hamda Do‘stlik tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Zafarobod tumani ( 176,3 %), Paxtakor (166,6 %) va Zarbdor (157,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 336,9 | 100,0 | 98,0 |
| Jizzax shahar | 117,8 | 35,0 | 95,2 |
| Arnasoy | 16,7 | 5,0 | 120,8 |
| Baxmal | 11,0 | 3,3 | 92,5 |
| G‘allaorol | 13,2 | 3,9 | 90,3 |
| Sharof Rashidov | 22,7 | 6,7 | 86,1 |
| Do‘stlik | 24,8 | 7,3 | 84,2 |
| Zomin | 17,8 | 5,3 | 46,4 |
| Zarbdor | 19,0 | 5,6 | 157,9 |
| Zafarobod | 35,4 | 10,5 | 176,3 |
| Mirzacho‘l | 10,5 | 3,1 | 109,5 |
| Paxtakor | 24,2 | 7,2 | 166,6 |
| Forish | 8,1 | 2,4 | 62,4 |
| Yangiobod | 15,7 | 4,7 | 96,8 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 32,0 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 8,5 % ni, Do‘stlik tumani 14,2 % ni, Sharof Rashidov 5,4 % ni hamda Paxtakor tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahar (240,6 %) hamda Zarbdor tumanida (127,7 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 104,1 | 100,0 | 108,1 |
| Zomin | 4,4 | 4,2 | 42,6 |
| Jizzax shahar | 33,2 | 32,0 | 240,6 |
| Zarbdor | 8,8 | 8,5 | 127,7 |
| Arnasoy | 3,9 | 3,8 | 92,9 |
| Zafarobod | 4,4 | 4,2 | 106,4 |
| Baxmal | 5,5 | 5,2 | 94,2 |
| Mirzacho‘l | 2,5 | 2,4 | 53,2 |
| G‘allaorol | 4,6 | 4,4 | 90,3 |
| Paxtakor | 9,8 | 9,4 | 112,5 |
| Sharof Rashidov | 5,7 | 5,4 | 102,9 |
| Forish | 3,5 | 3,4 | 84,1 |
| Do‘stlik | 14,8 | 14,2 | 85,8 |
| Yangiobod | 3,0 | 2,9 | 93,7 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 36,3 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 7,3 % ni, Zafarobod tumani 13,3 % ni, Zomin tumani 5,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Paxtakor tumaniga to‘g‘ri kelib, 246,9 % ni, hamda Zarbdor tumanida 198,7 % qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 232,8 | 100,0 | 94,1 |
| Jizzax shahar | 84,5 | 36,3 | 77,0 |
| Arnasoy | 12,8 | 5,5 | 133,2 |
| Baxmal | 5,5 | 2,4 | 91,0 |
| G‘allaorol | 8,6 | 3,7 | 90,4 |
| Sharof Rashidov | 17,0 | 7,3 | 81,6 |
| Do‘stlik | 10,0 | 4,3 | 82,0 |
| Zomin | 13,4 | 5,7 | 52,3 |
| Zarbdor | 10,2 | 4,4 | 198,7 |
| Zafarobod | 31,0 | 13,3 | 194,3 |
| Mirzacho‘l | 8,0 | 3,4 | 162,5 |
| Paxtakor | 14,5 | 6,2 | 246,9 |
| Forish | 4,6 | 2,0 | 52,1 |
| Yangiobod | 12,7 | 5,5 | 97,6 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 237,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 28,6 % ni tashkil etdi.

### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

2021- yilning yanvar-fevral oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati. | 831,1 | 100,0 | 102,2 |
| Zomin | 25,3 | 3,0 | 5,5 |
| Jizzax shahar | 319,9 | 38,5 | 100,4 |
| Zarbdor | 55,9 | 6,7 | 77,6 |
| Arnasoy | 45,3 | 5,4 | 97,5 |
| Zafarobod | 61,7 | 7,4 | 162,3 |
| Baxmal | 11,2 | 1,4 | 103,0 |
| Mirzacho‘l | 10,8 | 1,3 | 51,8 |
| G‘allaorol | 18,2 | 2,2 | 106,5 |
| Paxtakor | 74,1 | 8,9 | 191,5 |
| Sharof Rashidov | 49,7 | 6,0 | 95,2 |
| Forish | 22,2 | 2,7 | 85,0 |
| Do‘stlik | 121,3 | 14,6 | 83,8 |
| Yangiobod | 15,8 | 1,9 | 101,1 |

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 162,3 %), Paxtakor (191,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,5 % ni) hamda Do‘stlik (14,6 %), Paxtakor ( 8,9 %) va Zafarobod ( 7,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Baxmal (1,4 %) hamda Mirzacho‘l (1,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (1786,4 ming so‘m), Do‘stlik (1839,4 ming so‘m), Zafarobod (1224,6 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 241,3 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax shahrida 657,6 ming so‘mni, Yangiobod tumanida 555,5 ming so‘mni, Zafarobod tumanida 706,0 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ming. so‘m

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 595,2 | 241,3 |
| Zomin | 153,0 | 107,7 |
| Jizzax shahar | 1786,4 | 657,6 |
| Zarbdor | 641,7 | 218,3 |
| Arnasoy | 979,9 | 362,6 |
| Zafarobod | 1224,6 | 706,0 |
| Baxmal | 71,4 | 69,8 |
| Mirzacho‘l | 207,1 | 201,0 |
| G‘allaorol | 105,2 | 76,0 |
| Paxtakor | 987,5 | 323,1 |
| Sharof Rashidov | 222,8 | 101,7 |
| Forish | 238,4 | 87,0 |
| Do‘stlik | 1839,4 | 375,2 |
| Yangiobod | 556,4 | 555,5 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-fevral oylarida*, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 516,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 62,2 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulot-lari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin ( 99,9 %), Zafarobod (100,0 %) hamda tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes sub’yektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Paxtakor ( 5,1 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida ( 21,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes sub’yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

(2021- yil 1-mart holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3550 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 111 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,3 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 689 tasi ( 19,4 %), G‘allaorol tumaniga 353 tasi ( 9,9 %), Zomin tumaniga 271 tasi ( 7,6 %), Forish tumaniga 166 tasi (4,7 %), Zarbdor tumaniga 165 tasi ( 4,6 %) to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 163 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 46 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 28,2 %) Jizzax shahrida, 22 tasi (13,5 %) Sharof Rashidov tumanida, 24 tasi (14,7 %) G‘allaorol tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo‘limi**

Tel.: (72-221-51-13)